«InFinBank» AJ
АО «InFinBank»

«TASDIQLANGAN»
«УТВЕРЖДЕНО»

«InFinBank» AJ Aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi tomonidan /Общим Собранием Акционеров АО «InFinBank»

Kuzatuv kengashi raisi v.b./ И.о. Председателя Наблюдательного совета

Lavozimi/Должность

Z.S. Abdullayev/Абдуллаев З.С.

F.I.SH./Ф.И.О.

Imzo /Подпись

Sana/Дата

«InFinBank» AJ Aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining 30.06.2026-yildagi 76-sonli bayonnomasi /Протокол Общего собрания акционеров АО «InFinBank» № 76 от 30.06.2026г.

Ro‘yxatdan o‘tkazildi /Регистрация:

Ro‘yxat raqami: N-14

Ro‘yxat sanasi: 15.07.2026-yil

«Invest Finance Bank» Aksiyadorlik jamiyati AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG‘ILISHI TO‘G‘RISIDA NIZOM

ПОЛОЖЕНИЕ ОБ ОБЩЕМ СОБРАНИИ АКЦИОНЕРОВ Акционерного общества «Invest Finance Bank»

Hujjat «InFinBank» AJning mulki hisoblanadi. Ushbu hujjatning mazmuni butunligicha yoki qisman ko‘chirilishi yoki Bank xodimi bo‘lmagan uchinchi shaxslarga Bank bilan oldindan kelishilmagan holda taqdim etilishi mumkin emas. Har qanday o‘zgarishlar mazkur hujjatning asl nusxasiga va nazorat ostidagi nusxalariga kiritiladi.

Документ является собственностью АЖ «InFinBank». Содержание данного документа не может воспроизводиться целиком или по частям, либо передаваться третьим лицам, не являющимися работниками Банка, без предварительного согласования с Банком. Любые изменения вносятся в оригинал и только в контролируемые копии настоящего документа

MUNDARIJA/ОГЛАВЛЕНИЕ

1. MAQSAD /ЦЕЛЬ 4
2. QO‘LLANILISH SOHASI/ОБЛАСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ 3
3. HAVOLALAR /ССЫЛКИ 3
4. ATAMALAR VA TA’RIFLAR/ТЕРМИНЫ И ОПРЕДЕЛЕНИЯ 3
5. JAVOBGARLIK /ОТВЕТСТВЕННОСТЬ 4
6. AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG‘ILISHINING ISHINI TASHKIL ETISH / ОРГАНИЗАЦИЯ РАБОТЫ ОБЩЕГО СОБРАНИЯ АКЦИОНЕРОВ 4
7. SAQLASH/ ХРАНЕНИЕ 20
8. XULOSA /ЗАКЛЮЧЕНИЕ 20
9. ILOVALAR /ПРИЛОЖЕНИЯ 21

1. MAQSAD	1. ЦЕЛЬ
1.1. Mazkur Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi to‘g‘risidagi Nizom (bundan buyon matnda “Nizom” deb yuritiladi) “Invest Finance Bank” Aksiyadorlik jamiyati (bundan buyon matnda “Bank” deb yuritiladi) aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishining maqomini, ishini, chaqirish va o‘tkazish hamda qarorlar qabul qilinishi tartibini belgilaydi.	1.1. Настоящее Положение об Общем собрании акционеров (далее «Положение») определяет статус и регламентирует работу Общего собрания акционеров акционерного общества «Invest Finance Bank» (далее «Банк»), порядок его созыва, проведения и принятия решений.
2. QO‘LLANILISH SOHASI	**2. ОБЛАСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ**
2.1. Mazkur Nizom talablari Bank aksiyadorlariga, Bankning kollegial organlariga, shuningdek Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini chaqirish va o‘tkazilishini tashkil etish jarayonlariga bevosita jalb qilingan shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi.	2.1. Требования настоящего Положения распространяются на акционеров Банка, коллегиальные органы Банка, а также лица, непосредственно вовлеченные в процесс созыва и организации проведения Общего собрания акционеров Банка
3. HAVOLALAR	**3. ССЫЛКИ**
3.1. Normativ havolalar: 3.1.1. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni; 3.1.2. O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni; 3.1.3. O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida gi Qonuni; 3.1.4. “Tijorat banklarida korporativ boshqarish to‘g‘risida Nizom”; 3.1.5. Qimmatli qog‘ozlar bozorida axborot taqdim etish va e’lon qilish Qoidalari (O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi Bosh direktorining 2012-yil 24-iyuldagi 2012-13-son buyrug‘iga Ilova, AVda 2383-son bilan ro‘yxatga olingan); 3.1.6. Bank Ustavi.	3.1. Нормативные ссылки: 3.1.1. Закон Республики Узбекистан «О Банках и Банковской деятельности»; 3.1.2. Закон Республики Узбекистан «Об акционерных Обществах и защите прав акционеров»; 3.1.3. Закон Республики Узбекистан «О конфликте интересов»; 3.1.4. «Положение о корпоративном управлении в коммерческих Банках»; 3.1.5. Правил предоставления и публикации информации на рынке ценных бумаг (Приложение к приказу генерального директора Центра по координации и контролю за функционированием рынка ценных бумаг при Госкомимуществе Республики Узбекистан от 24 июля 2012 года № 2012-13, зарегистрировано в МЮ за №2383); 3.1.6. Устав Банка.
4. ATAMALAR VA TA’RIFLAR	**4. ТЕРМИНЫ И ОПРЕДЕЛЕНИЯ**
4.1. **“Bank”** – “Invest Finance Bank” Aksiyadorlik jamiyati va uning barcha bo‘linmalari; 4.2. **“Bank aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi”** – Bankning yuqori boshqaruv organi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq Bank faoliyatining asosiy masalalari bo‘yicha qarorlar qabul qiladi; 4.3. **“Bank Kuzatuv kengashi”** (bundan buyon matnda “Kuzatuv kengashi” deb yuritiladi)– Bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni va Bank Ustavi bilan Bank aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno. Kuzatuv kengashi vakolatlariga Bank faoliyatining strategik yo‘nalishlarini belgilash,	4.1. **«Банк»** - Акционерное общество «Invest Finance Bank» и все его подразделения; 4.2. **«Общее собрание акционеров Банка»** - высший орган управления Банка, которое принимает решения по основным вопросам деятельности Банка в соответствии с Законом Республики Узбекистан «Об акционерных Обществах и защите прав акционеров», Законом Республики Узбекистан «О Банках и Банковской деятельности» и Уставом Банка. 4.3. **«Наблюдательный совет Банка»** (далее Совет) - осуществляет Общее руководство деятельностью Банка, за исключением решения вопросов, отнесенных Законом Республики Узбекистан «Об акционерных Обществах и защите прав акционеров» и Уставом Банка к компетенции Общего собрания акционеров Банка. В его компетенцию входит определение стратегических направлений деятельности Банка, контроль над финансово-

moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish, samarali ichki nazorat tizimini yaratish va ishlashini ta'minlash, aksiyadorlar huquqlarining amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek ijroiya organlarining faoliyatini nazorat qilish masalalari kiradi; 4.4. **"Bank Boshqaruvi"** – kollegial ijroiya organ bo'lib, joriy faoliyatga rahbarlik qiladi, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va Bank Kuzatuv kengashi tomonidan belgilangan Bank maqsadlari, strategiyasi va siyosatining amalga oshirilishiga javobgar bo'ladi; 4.5. **"Kvorum"** – Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan aksiyadorlarning, yig'ilishni huquqiy layoqatli deb e'tirof etish uchun yetarli bo'lgan miqdori.	хозяйственной деятельностью, создание и функционирование эффективной системы внутреннего контроля, обеспечение реализации прав акционеров, а также контроль над деятельностью исполнительных органов; 4.4.**«Правление Банка»** – коллегиальный исполнительный орган, осуществляющий руководство текущей деятельностью, ответственно за реализацию целей, стратегии и политики Банка, определяемых Общим собранием акционеров и Советом Банка; 4.5. **«Кворум»** - число присутствующих на Общем собрании акционеров Банка, достаточное для признания решения собрания правомочным.
5. JAVOBGARLIK	**5. ОТВЕТСТВЕННОСТЬ**
5.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shuningdek ovoz berish natijalari aksiyadorlar e'tiboriga quyidagi yo'llar bilan yetkaziladi: 5.1.1. Ovoz berish yakunlari aksiyadorlarning ovoz berish o'tkazilgan umumiy yig'ilishida o'qib eshittiriladi; 5.1.2. Shuningdek, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin ovoz berish yakunlari to'g'risidagi hisobotni e'lon qilish orqali aksiyadorlar e'tiboriga yetkaziladi; 5.1.3. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bayonnomasi tuzilgan kundan boshlab ikki ish kuni ichida muhim fakt to'g'risidagi xabarnomada ma'lumotlarni oshkor qilish; 5.1.4. Biroq bu qarorlar qabul qilingan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay aksiyadorlar e'tiboriga yetkaziladi. 5.2. Bank aksiyalari fond birjasi listingida mavjud bo'lsa, Bank tegishli ma'lumotlarni fond birjasining rasmiy veb-saytida ham e'lon qilishi shart. 5.3. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining qarorlarining bajarilishini nazorat qilish, agar qarorda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa va yig'ilish bayonnomasida aks ettirilmagan bo'lsa, Bank Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi. 5.4. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining qarorlari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hozir bo'lgan va hozir bo'lmagan barcha aksiyadorlar uchun, o'zlariga tegishli qismda, majburiydir. 5.5. Bank aksiyadorlari qabul qilayotgan qarorlarning amaldagi qonunchilik normalariga muvofiqligi uchun javobgardirlar.	5.1. Решения, принятые Общим собранием акционеров, а также итоги голосования доводятся до сведения акционеров путем: 5.1.1. их оглашения на общем собрании акционеров, в ходе которого проводилось голосование; 5.1.2. а также доводятся до сведения акционеров после закрытия общего собрания акционеров путем опубликования отчета об итогах голосования; 5.1.3. раскрытия информации в сообщении о существенном факте в течение двух рабочих дней с даты составления протокола Общего собрания акционеров. 5.1.4. но не позднее тридцати дней с даты принятия этих решений. 5.2. В случае нахождения акций Банка в листинге фондовой биржи Банк обязан также опубликовать на официальном веб-сайте фондовой биржи соответствующую информацию. 5.3. Контроль за ходом выполнения решений Общего собрания акционеров осуществляет Совет Банка, если иное не оговорено в решении и не отражено в протоколе собрания. 5.4. Решения Общего собрания акционеров обязательны для выполнения всеми акционерами, как присутствующими, так и отсутствующими на Общем собрании акционеров, в части, их касающейся. 5.5. Акционеры Банка несут ответственность за соответствие принятых ими решений нормам действующего законодательства.
6. AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG'ILISHINING ISHINI TASHKIL ETISH **6.1. UMUMIY QOIDALAR**	**6. ОРГАНИЗАЦИЯ РАБОТЫ ОБЩЕГО СОБРАНИЯ АКЦИОНЕРОВ** **6.1. ОБЩИЕ ПОЛОЖЕНИЯ**
6.1.1. Bank har yili Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini (Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini) o'tkazishi	6.1.1. Банк обязан ежегодно проводить Общее собрание акционеров (годовое Общее собрание

shart. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o‘tkaziladi. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi, odatda, har yili 15-apreldan 30-iyunga qadar bo‘lgan oraliqda o‘tkaziladi.	акционеров). Годовое Общее собрание акционеров проводится не позднее чем через шесть месяцев после окончания финансового года. Годовое Общее собрание акционеров проводится обычно с 15 апреля по 30 июня каждого года.
6.1.12. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishida Bank Kuzatuv kengashini saylash to‘g‘risidagi, shuningdek Boshqaruv Raisi bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqidagi masalalar hal etiladi, shuningdek Bankning yillik hisobotlari, Bank ijroiya organi va Kuzatuv kengashining Bankni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hisobotlari va mazkur Nizomda nazarda tutilgan boshqa hujjatlar ko‘rib chiqiladi.	6.1.2. На годовом Общем собрании акционеров решаются вопросы об избрании Совета Банка, а также рассматриваются вопросы о возможности продления срока, перезаключения или расторжения договора с Председателем Правления, а также рассматриваются годовой отчет Банка, отчеты исполнительного органа и Совета Банка о принимаемых мерах по достижению стратегии развития Банка и иные документы, предусмотренные настоящим Положением.
6.1.13. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishidan tashqari o‘tkaziladigan umumiy yig‘ilishlar navbatdan tashqari yig‘ilishlardir.	6.1.3. Проводимые помимо годового собрания, Общие собрания акционеров являются внеочередными.
6.1.14. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish sanasi va tartibi, yig‘ilish o‘tkazilishi haqida Aksiyadorlarga xabar berish tartibi, Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazishga tayyorgarlik vaqtida Aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro‘yxati Bank Kuzatuv kengashi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi doirasida belgilanadi.	6.1.4. Дата и порядок проведения Общего собрания акционеров, порядок сообщения акционерам о его проведении, перечень предоставляемых акционерам материалов (информации) при подготовке к проведению Общего собрания акционеров устанавливаются Советом Банка в рамках действующего законодательства Республики Узбекистан.
6.2. AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG‘ILISHINING VAKOLATLARI	**6.2. КОМПЕТЕНЦИЯ ОБЩЕГО СОБРАНИЯ АКЦИОНЕРОВ**
6.2.1. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi: a) Bank Ustaviga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish yoki Bank Ustavining yangi tahririni tasdiqlash; b) Bankni qayta tashkil etish; c) Bankni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash va oraliq hamda yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash; d) Bank Kuzatuv kengashining miqdoriy tarkibini aniqlash, a’zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish, Bank Kuzatuv kengashi a’zolariga haq va kompensatsiyalar to‘lash; e) Bank Boshqaruvi Raisini Bank Kuzatuv kengashi tomonidan nomzodi taqdim etilgan holda tayinlash, shuningdek uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish. f) e’lon qilingan aksiyalarning eng ko‘p miqdorini belgilash; g) Bank ustav kapitalini kamaytirish; h) o‘z aksiyalarini sotib olish; i) Bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash; j) Bank Kuzatuv kengashi va Bank Boshqaruvi faoliyati tartibini belgilovchi Nizomlarni tasdiqlash;	6.2.1. К компетенции Общего собрания акционеров относятся: a) внесение изменений и дополнений в Устав Банка или утверждение Устава Банка в новой редакции; b) реорганизация Банка; c) ликвидация Банка, назначение ликвидатора (ликвидационной комиссии) и утверждение промежуточного и окончательного ликвидационных балансов; d) определение количественного состава Совета Банка, избрание их членов и досрочное прекращение их полномочий, оплата членам Совета Банка вознаграждений и компенсаций; e) назначение Председателя Правления Банка по представлению кандидатуры Советом Банка, а также досрочное прекращение его полномочий; f) определение предельного размера объявленных акций; g) уменьшение уставного фонда Банка; h) приобретение собственных акций; i) утверждение организационной структуры Банка; j) утверждение Положений, определяющих порядок деятельности Совета Банка и Правления Банка;

k) moliyaviy yil oxirida Bankning sof foydasidan to‘lanadigan rag‘batlantiruvchi to‘lovlar miqdorini belgilash;	k) установление размеров выплат стимулирующего характера, производимых за счет чистой прибыли Банка по итогам финансового года;
l) Bank faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va maqsadlaridan kelib chiqib, uning aniq shartlarini belgilagan holda yillik hisobot hamda o‘rta va uzoq muddatli muddatga Bankning rivojlanish strategiyasini tasdiqlash;	l) утверждение годового отчета и стратегии развития Банка на среднесрочный и долгосрочный период с определением ее конкретных сроков исходя из основных направлений и цели деятельности Банка;
m) Bankning foyda va zararlarini taqsimlash, shu jumladan barqaror rivojlanish va atrof-muhitga ta’sirni minimallashtirish sohasidagi tashabbuslarni moliyalashtirish zarurligini hisobga olgan holda;	m) распределение прибыли и убытков Банка, в том числе с учетом необходимости финансирования инициатив в области устойчивого развития и минимизации экологического воздействия;
n) aksiyalarning har bir turi bo‘yicha dividendlar to‘lash, dividendning miqdori, uni to‘lash shakli va tartibi to‘g‘risida qaror qabul qilish, shu jumladan muayyan turdagi aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lamaslik, shuningdek dividend miqdori jamiyat ustavida belgilangan imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlarni to‘liq bo‘lmagan miqdorda to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilish;	n) принятие решения о выплате дивидендов, размере дивиденда, форме и порядке его выплаты по акциям каждого типа, в том числе принятие решение о невыплате дивидендов по акциям определенных типов, а также о выплате дивидендов в неполном размере по привилегированным акциям, размер дивиденда по которым определен в уставе общества;
o) o‘z vakolatlariga kiruvchi masalalar, shu jumladan Bankni boshqarish borasida qonunchilikda belgilangan talablariga rioya qilinishini to‘g‘risida Bank Kuzatuv kengashining hisobotlarini eshitish;	o) заслушивание отчетов Совета Банка по вопросам, входящим в их компетенцию, в том числе по соблюдению установленных законодательством требований по управлению Банком;
p) aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog‘ozlarning uyushgan savdosiga qo‘yish) narxini aniqlash;	p) определение цены размещения (выставления на организованные торги ценными бумагами) акций;
q) Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishining reglamentini tasdiqlash;	q) утверждение регламента Общего собрания акционеров;
r) aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;	r) дробление и консолидация акций;
s) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 9-bobiga muvofiq, affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish;	s) принятие решения о заключении сделок с аффилированными лицами в соответствии с главой 9 Закона Республики Узбекистан «Об акционерных Обществах и защите прав акционеров» случаях, предусмотренных Законодательством;
t) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 8-bobiga muvofiq, balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilinayotgan sanada Bank sof aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig‘ini tashkil etuvchi mol-mulk haqida yirik bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish;	t) принятие решения о совершении крупных сделок, предметом которой является имущество, балансовая стоимость или стоимость приобретения которого составляет свыше пятидесяти процентов от размера чистых активов Банка на дату принятия решения о совершении такой сделки в соответствии с главой 8 Закона Республики Узбекистан «Об акционерных Обществах и защите прав акционеров» предусмотренных действующим Законодательством;
u) korporativ boshqaruv sohasida ichki nazorat to‘g‘risida, manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan hollarda harakat qilish tartibi to‘g‘risida nizomlarni tasdiqlash;	u) утверждение положений о внутреннем контроле в области корпоративного управления, о порядке действий при конфликте интересов;
v) har yili mustaqil professional tashkilotlar – maslahatchilarni jalb qilgan holda biznes-jaraayonlar va loyihalarning Bankning rivojlanish maqsadlariga muvofiqligini tahlil qilish to‘g‘risida qaror qabul qilish va tahlil natijalarini eshitish;	v) принятие решения о проведении ежегодного анализа соответствия бизнес-процессов и проектов целям развития Банка с привлечением независимых профессиональных организаций – консультантов и заслушивание результатов анализа;
w) majburiy auditorlik tekshiruvini, shu jumladan xalqaro moliyaviy hisoboti standartlariga muvofiq	w) принятие решения об определении аудиторской организации для проведения обязательной

tuzilgan Bankning moliyaviy hisobotining tashqi auditini o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini aniqlash, uning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to‘g‘risida qaror qabul qilish; x) Bankning joriy xo‘jalik faoliyatiga taalluqli bo‘lgan bitimlarni aniqlash; y) xayriya (homiylik) yoki qaytarilmaydigan yordam berish (qabul qilish) tartibi, shartlarini va Kuzatuv kengashi tomonidan qarorlar qabul qilish tartibini belgilash; z) elektron pochta orqali, shuningdek vakolatlarini vakilga berish yoki Umumiy yig‘ilishni videokonferensaloqa orqali o‘tkazish yo‘li bilan ovoz berish (elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda) tartibini belgilash (tasdiqlash); aa) sanoq komissiyasiga amaliy yordam ko‘rsatish yoki uning vazifalarini bajarish uchun mustaqil ekspertlarni (masalan, investitsiya maslahatchisi va qimmatli qog‘ozlar bozorining boshqa professional ishtirokchilarini) jalb qilish tartibini belgilash (tasdiqlash); bb) Bank mablag‘lari hisobidan minoritar aksiyadorlar qo‘mitasini saqlash xarajatlarini qoplash tartibini belgilash (tasdiqlash); cc) Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida hisobot beradigan Bank boshqaruvi va nazorat organlarining ma’ruzasi (hisoboti) shakli va mazmuniga qo‘yiladigan talablarni belgilash, Umumiy yig‘ilish davomiyligini belgilash; dd) qonun hujjatlariga va Bank Ustaviga muvofiq boshqa masalalarni hal qilish. 6.2.2. a), b), c), d) bandlarda ko‘rsatilgan masalalar bo‘yicha qarorlar Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etayotgan, ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlarning to‘rtdan uch qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. 6.2.3. Qolgan masalalar bo‘yicha qarorlar Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etayotgan, ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlarning oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. 6.2.4. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Bankning ijroiya organi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.	аудиторской проверки, в том числе внешнего аудита финансовой отчетности Банка, составленного в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности, о предельном размере оплаты ее услуг и заключении (расторжении) с ней договора; x) определение сделок, относящихся к текущей хозяйственной деятельности Банка; y) определение порядка, условий оказания (получения) и принятия Советом решений о благотворительной (спонсорской) или безвозмездной помощи; z) определение (утверждение) порядка голосования по электронной почте (с подтверждением электронной цифровой подписью), а также путем делегирования своих полномочий представителю или проведения Общего собрания в режиме видеоконференцсвязи; aa) определение (утверждение) порядка привлечения независимых экспертов для оказания практического содействия счетной комиссии или выполнения ее функций (например, инвестиционный консультант и другие профессиональные участники рынка ценных бумаг); bb) определение (утверждение) порядка покрытия расходов на содержание комитета миноритарных акционеров за счет средств Банка (при создании комитета миноритарных акционеров); cc) установление требований к форме и содержанию доклада (отчета) органов управления и контроля Банка, отчитывающихся на Общем собрании акционеров, определение длительности Общего собрания; dd) решение иных вопросов в соответствии с законодательством и Уставом Банка; 6.2.2. Решения по вопросам, предусмотренным пунктами, a), b), c), d) принимаются большинством в три четверти голосов акционеров — владельцев голосующих акций, принимающих участие в Общем собрании акционеров. 6.2.3. Решение по остальным вопросам принимается Общим собранием акционеров простым большинством голосов акционеров – владельцев голосующих акций, принимающих участие в Общем собрании акционеров. 6.2.4. Вопросы, отнесенные к компетенции Общего собрания акционеров, не могут быть переданы на решение исполнительному органу Банка.
6.3. AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG‘ILISHIDA QATNASHISH HUQUQI. AKSIYADORLAR VA ULARNING VAKOLATLI VAKILLARINI RO‘YXATDAN O‘TKAZISH	**6.3. ПРАВО НА УЧАСТИЕ В ОБЩЕМ СОБРАНИИ АКЦИОНЕРОВ. РЕГИСТРАЦИЯ АКЦИОНЕРОВ И ИХ ПОЛНОМОЧНЫХ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ**
6.3.1. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi	6.3.1. Право участия на Общем собрании акционеров имеют акционеры, зафиксированные в реестре

o'tkaziladigan sanadan uch ish kuni oldin shakllantirilgan Bank aksiyadorlarining reyestrida qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.	акционеров Банка, сформированном за три рабочих дня до даты проведения Общего собрания акционеров.
6.3.2. Aksiyadorning talabiga ko'ra Bank aksiyadorga u Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Bank aksiyadorlarining reyestriga kiritilganligi to'g'risida axborot taqdim etishi shart.	6.3.2. По требованию акционера Банк обязан представить ему информацию о включении его в реестр акционеров, сформированный для проведения Общего собрания акционеров.
6.3.3. Bank aksiyadorlarining reyestriga o'zgarishlar, mazkur reyestr shakllantirilgan sanada unga kiritilmay qolgan shaxslarning buzilgan huquqlari tiklangan yoki reyestrni shakllantirishda yo'l qo'yilgan xatolar tuzatilingan hollardagina, qonunchilikka muvofiq kiritilishi mumkin.	6.3.3. Изменения в сформированный реестр акционеров Банка могут вноситься только в случае восстановления нарушенных прав лиц, не включенных в указанный реестр на дату его формирования составления, или исправления ошибок, допущенных при его формировании составлении, в порядке, установленном законодательством.
6.3.4. Raislik qiluvchining taklifiga binoan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Bank aksiyadorlari reyestriga kiritilgan aksiyadorlar, ularning vakolatli vakillari, sanoq komissiyasi a'zolari, ichki audit xizmati rahbari, auditorlik tekshiruvini o'tkazgan auditorlik tashkiloti vakili, Bank Kuzatuv kengashi a'zolari, Boshqaruv a'zolari, shuningdek minoritar aksiyadorlar qo'mitasining vakili (agar mavjud bo'lsa) va boshqalar ishtirok etishi mumkin.	6.3.4. По приглашению Председательствующего на Общем собрании акционеров могут присутствовать акционеры, зафиксированные в реестре акционеров Банка, их полномочные представители, члены счетной комиссии, руководитель службы внутреннего аудита, представитель аудиторской организации, которая проводила аудиторскую проверку, члены Совета Банка, члены Правления, а также представитель комитета миноритарных акционеров (при наличии) и др.
6.3.5. Bank Kuzatuv kengashi a'zoligiga va Bank Boshqaruvi raisi lavozimiga nomzodlar, ularning nomzodlari ko'rib chiqilayotganda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishlari mumkin.	6.3.5. Кандидаты в члены Совета Банка и на должность Председателя Правления Банка могут присутствовать на Общем собрании акционеров при рассмотрении своих кандидатур.
6.3.6. Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun aksiyadorlar yoki ularning vakolatli vakillari yig'ilish o'tkazish bildirishnomada ko'rsatilgan joyda va vaqtda ro'yxatdan o'tishlari shart.	6.3.6. Для участия на Общем собрании акционеры или их полномочные представители должны пройти регистрацию по месту и времени, указанному в уведомлении о проведении собрания.
6.3.7. Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi. Ovoz berishga doir ishonchnomada vakolat bergan va vakil qilingan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar (ismi-sharifi yoki nomi, yashash joyi yoki joylashgan yeri, pasportiga oid ma'lumotlar) bo'lishi lozim. Jismoniy shaxs nomidan berilgan ovoz berishga doir ishonchnoma notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berishga doir ishonchnoma uning rahbarining imzosi va ushbu yuridik shaxsning muhri bilan (muhr mavjud bo'lgan taqdirda) tasdiqlangan holda beriladi.	6.3.7. Представитель акционера на Общем собрании акционеров действует на основании доверенности, составленной в письменной форме. Доверенность на голосование должна содержать сведения о представляемом и представителе (имя или наименование, место жительства или место нахождения, паспортные данные). Доверенность на голосование от имени физического лица должна быть удостоверена нотариально. Доверенность на голосование от имени юридического лица выдается за подписью его руководителя и заверяется печатью этого юридического лица (при наличии печати).
6.3.8. Aksiyador Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishidagi o'z vakilini istalgan vaqtda almashtirishga yoki yig'ilishda shaxsan o'zi ishtirok etishga haqlidir.	6.3.8. Акционер вправе в любое время заменить своего представителя на Общем собрании акционеров или лично принять участие в нем.
6.3.9. Umumiy yig'ilishda qatnashish uchun kelgan jismoniy shaxslar bo'lgan aksiyadorlarni ro'yxatdan o'tkazish pasport yoki aksiyadorning shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjat ko'rsatilgach, vakilga nisbatan esa – notarial tartibda tasdiqlangan ishonchnoma ko'rsatilgach amalga oshiriladi.	6.3.9. Регистрация акционеров, физических лиц, прибывших для участия в Общем собрании, осуществляется при предъявлении паспорта или иного документа, удостоверяющего личность акционера, а в отношении представителя — также доверенности, заверенной нотариально.

6.3.10. Bank aksiyadori bo‘lgan yuridik shaxsning rahbari umumiy yig‘ilishda lavozimi bo‘yicha o‘z vakolatlarini lavozimiga tayinlanganligi to‘g‘risidagi huquqiy hujjat va shaxsini tasdiqlovchi hujjat asosida amalga oshiradi. 6.3.11. Yuridik shaxs bo‘lgan aksiyadorning vakili, ushbu yuridik shaxsning rahbari yoki uning ta’sis hujjatlari bilan bunga vakolat berilgan boshqa shaxs tomonidan imzolangan hamda ushbu tashkilotning muhri (agar muhr bo‘lsa) bilan tasdiqlangan ishonchnoma mavjud bo‘lganda, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etishi mumkin. 6.3.12. Agar Bankning aksiyasi bir nechta shaxsning umumiy ulushli mulkida bo‘lsa, Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ovoz berish vakolatlari ularning xohishiga ko‘ra umumiy ulushli mulk ishtirokchilaridan biri yoki ularning umumiy vakili tomonidan amalga oshiriladi. Ko‘rsatilgan har bir shaxsning vakolatlari tegishli tarzda rasmiylashtirilgan bo‘lishi kerak. 6.3.13. Aksiyalarning nominal egasi Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida aksiyalar egasi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qatnashadi. 6.3.14. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish uchun shakllantirilgan Bank aksiyadorlarining reyestriga muvofiq ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq shaklda Qayd etish ro‘yxati tuziladi. 6.3.15. Qayd etish ro‘yxati risola holiga keltirilgan, tartib raqami qo‘yilgan, ip o‘tkazib tikilgan va Bank muhri bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak. 6.3.16. Umumiy yig‘ilishni o‘tkazishda aksiyadorlar (ularning vakillari) qayd etish ro‘yxatiga imzo chekadi va Bank aksiyadorlari reyestri ma’lumotlari bo‘yicha belgilangan har bir aksiyadorning ovoz beruvchi aksiyalari sonidan kelib chiqib ovoz berish uchun byulletenlar to‘plamini (2-ilova) oladilar. 6.3.17. Agar yig‘ilish ishtirokchisi bir yoki bir nechta aksiyadorning manfaatlarini ifodalashga ishonchnoma taqdim etsa, u holda unga u ifodalayotgan aksiyador (aksiyadorlar) uchun ovoz berishga byulleten beriladi, qayd etish ro‘yxatida esa u ifodalayotgan aksiyadorning familiyasi qarshisiga «_____ta (soni) ovoz beruvchi aksiyalar bo‘yicha «_____» da berilgan ishonchnoma bo‘yicha» degan yozuv qayd etiladi hamda vakilning familiyasi, ismi, otasining ismi ko‘rsatiladi.	6.3.10. Руководитель юридического лица — акционера Банка осуществляет свои полномочия на Общем собрании по должности на основании правового акта о назначении его на должность и документа, удостоверяющего личность. 6.3.11. Представитель акционера — юридического лица может участвовать в Общем собрании акционеров при наличии доверенности на его имя, выданной за подписью руководителя организации или иного лица, уполномоченного на это его учредительными документами, заверенной печатью этой организации (при наличии печати). 6.3.12. В случае, если акция Банка находится в Общей долевой собственности нескольких лиц, то правомочия по голосованию на Общем собрании акционеров осуществляются по их усмотрению одним из участников Общей долевой собственности либо их общим представителем. Полномочия каждого из указанных лиц должны быть надлежащим образом оформлены. 6.3.13. Номинальный держатель участвует на Общем собрании акционеров в соответствии с договором, заключенным с лицом, по поручению которого он держит акции. 6.3.14. В соответствии с реестром акционеров Банка, сформированным для проведения Общего собрания акционеров, составляется регистрационный список по форме согласно приложению №1 к настоящему Положению. 6.3.15. Регистрационный список должен быть сброшюрован, пронумерован, прошит и скреплен печатью Банка. 6.3.16. При проведении Общего собрания акционеры (их представители) расписываются в регистрационном списке и получают комплект бюллетеней (приложение №2) для голосования исходя из количества голосующих акций каждого акционера, определенного по данным реестра акционеров Банка. 6.3.17. Если участник собрания предъявляет доверенность на представление интересов одного или нескольких акционеров, ему выдаются бюллетени для голосования представляемого акционера (акционеров), а в регистрационном списке напротив фамилии представляемого акционера делается пометка: «по доверенности № ___ от «___» по _____ (кол-во) голосующим акциям» и указывается фамилия, имя, отчество представителя.
6.4. AKSIYADORLARNING YILLIK UMUMIY YIG‘ILISHINI O‘TKAZISHGA TAYYORGARLIK	**6.4. ПОДГОТОВКА К ПРОВЕДЕНИЮ ГОДОВОГО ОБЩЕГО СОБРАНИЯ АКЦИОНЕРОВ**
6.4.1. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini sifatli tarzda tayyorlash va ushbu Nizomning 6.3-bo‘limda belgilangan	6.4.1. Для качественной подготовки и проведения Общего собрания акционеров в срок, установленный

muddatda o'tkazish uchun Bank Kuzatuv kengashi korporativ maslahatchi (agar mavjud bo'lsa) bilan birgalikda quyidagilarni amalga oshiradi: Bank Kuzatuv kengashi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'radi, u quyidagilarni belgilaydi: a) Bank Kuzatuv kengashi qarori bilan auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun, shu jumladan Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlash, Xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi audit o'tkazish uchun tanlangan auditorlik tashkilotlari bilan shartnomalar tuzadi, bunda shartnomada auditni yakunlashning aniq muddatlari ko'rsatiladi; b) Yillik Umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin, Xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi audit o'tkazilgandan so'ng, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tuzilgan yillik moliyaviy hisobotlarning e'lon qilinishini ta'minlaydi.	в разделе 6.3. настоящего Положения Совет Банка совместно с корпоративным консультантом (при наличии) осуществляет следующее: Подготовку к проведению Общего собрания акционеров проводит Совет Банка, который определяет: а) заключает договора с аудиторскими организациями, выбранными решением Совета Банка по проведению аудиторской проверки, в том числе составлению финансовой отчетности в соответствии с Международными стандартами финансовой отчетности, внешнего аудита в соответствии с Международными стандартами аудита с указанием в договоре конкретных сроков завершения проверки; б) обеспечивает публикацию ежегодной финансовой отчетности, составленную в соответствии с Международными стандартами финансовой отчетности, после проведения ее внешнего аудита в соответствии с Международными стандартами аудита не позднее, чем за две недели до даты проведения годового Общего собрания.
6.4.2. Bank Kuzatuv kengashi shuningdek quyidagilarni ishlab chiqadi (tayyorlaydi): a) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish reglamenti loyihasi, har bir yo'nalish bo'yicha asoslantirilgan holda sof foydani taqsimlash (zararlarni qoplash) hamda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ko'rib chiqiladigan boshqa hujjatlarning loyihalari, shuningdek sanoq komissiyasini tuzish to'g'risidagi takliflar. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritish uchun aksiyadorlardan tushgan takliflarni, shu jumladan Bank Kuzatuv kengashiga ko'rsatgan nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtiradi; b) Bankning yillik hisobotini va yillik biznes-rejasini, shuningdek Bank faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda, aniq muddatlari belgilangan o'rta va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan Bankning rivojlanish strategiyasi loyihasi; c) Biznes-reja parametrlari bajarilishi va Bankning rivojlanish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan choralar to'g'risida Bank Boshqaruvining hisobotini, auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini tanlash bo'yicha tanlov o'tkazish va boshqalar.	6.4.2. Совет Банка также разрабатывает (подготавливает): а) проекты регламента проведения Общего собрания акционеров, распределения чистой прибыли (покрытия убыток) с приложением обоснования по каждому направлению и других документов, подлежащих рассмотрению Общим собранием акционеров, а также предложения по созданию счетной комиссии. Обобщает поступившие со стороны акционеров предложения для внесения в повестку дня годового Общего собрания акционеров, в том числе информацию о выдвинутых кандидатах в Совет Банка; b) годовой отчет и годовой бизнес-план Банка, а также проект стратегии развития Банка на среднесрочный и долгосрочный период, с определением ее конкретных сроков исходя из основных направлений и целей деятельности Банка; c) отчет Правления Банка о выполнение параметров бизнес - плана и о принимаемых мерах по достижению стратегии развития Банка, проведение конкурса по отбору аудиторской организации для проведения аудиторской проверки и др.
6.4.3. Bank Boshqaruvi ushbu Nizomning 6.4.1-bandida ko'rsatilgan hujjatlar ishlab chiqilgandan (tayyorlangandan) keyin Bank Kuzatuv kengashiga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi.	6.4.3. Правление Банка после разработки (подготовки) материалов, указанных в пункте 6.4.1. настоящего Положения вносит их на рассмотрение Совету Банка.
6.4.4. Bank Kuzatuv kengashi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'radi va quyidagilarni belgilaydi: a) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni;	6.4.4. Подготовку к проведению Общего собрания акционеров проводит Совет Банка, который определяет: а) дату, место и время проведения Общего собрания акционеров;

b) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining kun tartibini; c) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun Bank aksiyadorlarining reyestri shakllantiriladigan sanani; d) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibini; e) Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etiladigan axborot (materiallar) ro'yxatini; f) Ovoz berish byulletenining shakli va matnini. g) Aniq masala qo'yilishini aks ettirmaydigan ta'riflarning (shu jumladan, «turli masalalar», «boshqa masalalar», «o'zga masalalar» va shunga o'xshash ta'riflar) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi. 6.4.5. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kundan kam va o'ttiz kundan ko'p etib belgilanishi mumkin emas. 6.4.6. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi bildirishnoma aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida yigirma bir kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan o'ttiz kun oldin Korporativ axborotning yagona portalida, Bankning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi. 6.4.7. Bank yozma bildirishnomani aksiyadorga mustaqil ravishda yoki Bank va qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi bilan tegishli xizmatlarni ko'rsatish uchun tuzilgan shartnomaga muvofiq, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi orqali yuborishga haqli. 6.4.8. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi bildirishnomada quyidagilar ko'rsatilishi kerak: a) Bankning nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili; b) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joy; c) Bank aksiyadorlarining reyestri shakllantiriladigan sana; d) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilish kun tartibiga kiritilgan masalalar; e) Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan aksiyadorlarni tanishtirish tartibi. 6.4.9. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborotga (materiallarga) Bankning yillik hisobot, Bankning yillik moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan auditorlik tashkilotining xulosasi, Bank Kuzatuv kengashining Boshqaruv raisi	b) повестку дня Общего собрания акционеров; c) дату формирования реестра акционеров Банка для проведения Общего собрания акционеров; d) порядок сообщения акционерам о проведении Общего собрания акционеров; e) перечень информации (материалов), предоставляемой акционерам при подготовке к проведению Общего собрания акционеров; f) форму и текст бюллетеня для голосования. g) Не допускается включение в повестку дня общего собрания акционеров формулировок, не содержащих постановку конкретного вопроса (в том числе «разное», «иное», «другие» и т. п.). 6.4.5. Дата проведения Общего собрания акционеров не может быть установлена менее чем за десять и более чем за тридцать дней со дня принятия решения о его проведении. 6.4.6. Сообщение о проведении общего собрания акционеров публикуется на Едином портале корпоративной информации, на официальном веб-сайте общества и в средствах массовой информации, а также направляется акционерам по электронной почте не позднее чем за двадцать один день, но не ранее чем за тридцать дней до даты проведения общего собрания акционеров. 6.4.7. Банк вправе уведомить письменное уведомление акционеру самостоятельно либо через профессионального участника рынка ценных бумаг в соответствии с договором, заключаемым между Банком и профессиональным участником рынка ценных бумаг на оказание соответствующих услуг. 6.4.8. Сообщение о проведении Общего собрания акционеров должно содержать: a) наименование, местонахождение (почтовый адрес) и адрес электронной почты Банка; b) дату, время и место проведения Общего собрания акционеров; c) дату формирования реестра акционеров Банка; d) вопросы, включенные в повестку дня Общего собрания акционеров; e) порядок ознакомления акционеров с информацией (материалами), подлежащей предоставлению акционерам при подготовке к проведению Общего собрания акционеров. 6.4.9. К информации (материалам), подлежащей предоставлению акционерам при подготовке к проведению Общего собрания акционеров, относятся годовой отчет Банка, заключение аудиторской организации по результатам проверки годовой финансово-хозяйственной деятельности Банка,

bilan tuzilgan shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish, shartnomani qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi to'g'risidagi xulosasi, shuningdek Bank Kuzatuv kengashiga nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar, Bank ustaviga kiritiladigan o'zgartish va qo'shimchalar loyihasi, Bankning o'rta va uzoq muddatga rivojlanish strategiyasi hamda kun tartibi bo'yicha boshqa zarur axborot, shu jumladan Kuzatuv kengashining umumiy yig'ilishning kun tartibiga nisbatan munosabati kiradi.	заключение Совета Банка о возможности продления срока, перезаключения или прекращения договора с Председателем Правления, а также сведения о кандидатах в члены Совета Банка, проект изменений и дополнений, вносимых в Устав Банка, или проект Устава Банка в новой редакции, а также стратегия развития Банка на среднесрочный и долгосрочный период и иная необходимая информация по повестке дня, в том числе позиция Совета относительно повестки дня Общего собрания.
6.4.10. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi majburiy bo'lgan qo'shimcha axborotning (materiallarning) ro'yxati qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanishi mumkin. Shu bilan birga, Umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga taqdim etilishi kerak bo'lgan ma'lumotlar (materiallar) tarkibiga qo'shimcha ravishda ESG omillarini boshqarish va iqlim xavflarining Bankning moliyaviy barqarorligiga ta'sirini baholash to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan Barqaror rivojlanish to'g'risidagi hisobot kiritilishi mumkin. Bunda Ichki audit xizmatining (yoki tashqi tekshiruvchining) oshkor etilayotgan ESG hisobotining ishonchliligi yuzasidan majburiy xulosasi bo'lishi shart.	6.4.10. Перечень дополнительной информации (материалов), обязательной для предоставления акционерам при подготовке к проведению Общего собрания акционеров, может быть установлен уполномоченным государственным органом по регулированию рынка ценных бумаг. При этом дополнительно в состав информации (материалов), подлежащих предоставлению лицам, имеющим право на участие в Общем собрании, может быть включен Отчет об устойчивом развитии, содержащий сведения об управлении ESG-факторами и оценку влияния климатических рисков на финансовую устойчивость Банка. При этом должно быть обязательное заключение службы внутреннего аудита (или внешнего верификатора) о достоверности раскрываемой ESG-отчетности.
6.4.11. Bankning ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) Bankning moliya yili tugagandan so'ng to'qson kundan kechiktirmay, shu jumladan foydani taqsimlash, umumiy yig'ilish o'tkazilguncha belgilangan tartibda nomzodlarni almashtirish imkoniyatini hisobga olgan holda boshqarish va nazorat organlariga nomzodlar masalalari bo'yicha Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga (4-ilovada keltirilgan shaklda) hamda Bank Kuzatuv kengashiga ushbu Kuzatuv kengashining son tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli.	6.4.11. Акционеры (акционер), являющиеся в совокупности владельцами не менее чем одного процента голосующих акций Банка, в срок не позднее девяносто дней после окончания финансового года вправе вносить предложения (по форме, указанной в приложении №4) по повестке дня годового Общего собрания акционеров, в том числе по распределению прибыли, кандидатурам в члены органов управления и контроля, с возможностью их замены до проведения Общего собрания акционеров в установленном порядке тридцати дней после окончания финансового года Банка, вправе внести вопросы в повестку дня годового Общего собрания акционеров (по форме указанной в приложении №4) и выдвинуть кандидатов в Совет Банка, число которых не может превышать количественного состава этого органа.
6.4.12. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga masala uni qo'yish sabablarini, masalani kiritayotgan aksiyadorlarning (aksiyadorning) ismi-sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatilgan holda yozma shaklda kiritiladi.	6.4.12. Вопрос в повестку дня Общего собрания акционеров вносится в письменной форме с указанием мотивов его постановки, имени акционера (акционеров), вносящего вопрос, количества и типа принадлежащих ему акций.
6.4.13. Bank Kuzatuv kengashiga nomzodlar ko'rsatish to'g'risida takliflar kiritilganda, shu jumladan o'zini o'zi nomzod qilib ko'rsatgan taqdirda nomzodning ismi-sharifi, unga tegishli aksiyalarning soni va turi (agar nomzod Bank aksiyadori bo'lsa), shuningdek nomzodni ko'rsatayotgan aksiyadorlarning ismi-sharifi (nomi),	6.4.13. При внесении предложений о выдвижении кандидатов в Совет Банка, в том числе в случае самовыдвижения, указываются имя кандидата, количество и тип принадлежащих ему акций (в случае, если кандидат является акционером Банка), а также имена (наименования) акционеров,

ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko‘rsatiladi. Bank Kuzatuv kengashi a’zoligiga nomzodlarni ko‘rsatishda aksiyadorlar nomzodlarning ESG omillari va iqlim xatarlarini boshqarish bo‘yicha tajriba va bilimlarga ega ekanligini hisobga olishlari maqsadga muvofiqdir.	выдвигающих кандидата, количество и тип принадлежащих им акций. При выдвижении кандидатов в Наблюдательный совет Банка акционерам целесообразно учитывать наличие у кандидатов опыта и знаний в области управления ESG-факторами и климатическими рисками.
6.4.14. Bank Kuzatuv kengashi tushgan takliflarni ushbu Nizomning 6.4.11-bandida belgilangan muddat tamom bo‘lgandan keyin 10 kundan kechiktirmay ko‘rib chiqishga va ularni Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi kun tartibiga kiritish yoki kun tartibiga kiritishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilishga majburdir.	6.4.14. Совет Банка обязан рассмотреть поступившие предложения и принять решение о включении их в повестку дня Общего собрания акционеров или об отказе во включении в указанную повестку дня не позднее 10 дней после окончания срока, установленного в п.6.4.11. настоящего Положения.
6.4.15. Aksiyadorlar (aksiyador) tomonidan kiritilgan masala aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi kun tartibiga, shuningdek ko‘rsatilgan nomzodlar Bank Kuzatuv kengashiga saylov bo‘yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro‘yxatiga kiritilishi kerak, quyidagi hollardan mustasno: a) Ushbu Nizomning 6.4.11.-bandida belgilangan muddatga aksiyadorlar (aksiyador) tomonidan rioya etilmagan bo‘lsa; b) Aksiyadorlar (aksiyador) Bankning ushbu Nizomning 6.4.11.-bandida nazarda tutilgan miqdordagi ovoz beruvchi aksiyalarining egasi bo‘lmasa; v) Saylanadigan organlarga nomzodlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar to‘liq bo‘lmasa; g) Takliflar qonunchilik talablariga muvofiq bo‘lmasa.	6.4.15. Вопрос, внесенный акционером (акционерами), подлежит включению в повестку дня Общего собрания акционеров равно как выдвинутые кандидаты подлежат включению в список кандидатур для голосования по выборам в Совет Банка, за исключением случаев, когда: а) акционером (акционерами) не соблюден срок, установленный в пункте 6.4.11. настоящего положения; б) акционер (акционеры) не является владельцем количества голосующих акций Банка, предусмотренного в пункте 6.4.11. настоящего Положения; в) если данные о кандидатурах в выборные органы Банка являются неполными; г) предложения не соответствуют требованиям актов законодательства.
6.4.16. Aksiyadorlar (aksiyador) Bank Kuzatuv kengashiga o‘zlari ko‘rsatgan nomzodlar ro‘yxatiga Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi to‘g‘risidagi bildirishnoma e’lon qilingan sanadan e’tiboran uch ish kunidan kechiktirmay o‘zgartirishlar kiritishga haqli.	6.4.16. Акционеры (акционер) вправе внести изменения в список выдвинутых ими кандидатов в Совет Банка не позднее трех рабочих дней с даты опубликования сообщения о проведении годового Общего собрания акционеров.
6.4.17. Bank Kuzatuv kengashining masalani Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining kun tartibiga yoki nomzodni Bank Kuzatuv kengashiga saylov bo‘yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro‘yxatiga kiritish yoki kiritishni rad etish to‘g‘risidagi asoslantirilgan qarori masalani kiritgan yoki taklif taqdim etgan aksiyadorlarga (aksiyadorga) qaror qabul qilingan kundan e’tiboran uch ish kunidan kechiktirmay yuboriladi.	6.4.17. Решение Совета Банка о включении или мотивированном отказе во включении вопроса в повестку дня Общего собрания акционеров или кандидата в список кандидатур для голосования по выборам в Совет Банка направляется акционеру (акционерам), внесшему вопрос или представившему предложение, не позднее трех рабочих дней с даты его принятия.
6.4.18. Bank Kuzatuv kengashining masalani Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining kun tartibiga yoki nomzodni Bank Kuzatuv kengashiga saylov bo‘yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro‘yxatiga kiritishni rad etish to‘g‘risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.	6.4.18. Решение Совета Банка об отказе во включении вопроса в повестку дня Общего собрания акционеров или кандидата в список кандидатур для голосования по выборам в Совет Банка может быть обжаловано в суд.
6.5. AKSIYADORLARNING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG‘ILISHINI O‘TKAZISHGA TAYYORGARLIK	**6.5. ПОДГОТОВКА К ПРОВЕДЕНИЮ ВНЕОЧЕРЕДНОГО ОБЩЕГО СОБРАНИЯ АКЦИОНЕРОВ**
6.5.1. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi Bank Kuzatuv kengashining qaroriga ko‘ra:	6.5.1. Внеочередное Общее собрание акционеров проводится по решению Совета Банка на основании:

a) uning o'z tashabbusi asosida; b) talab taqdim etilgan sanada Bank ovoz beruvchi aksiyalarning kamida 5%iga egalik qiluvchi aksiyador(lar)ning talabi asosida o'tkaziladi.	а) его собственной инициативы; б) требования акционера (акционеров), являющегося владельцем не менее чем 5% голосующих акций Банка на дату предъявления требования (в соответствии с приложением №5).
6.5.2. Bank Kuzatuv kengashi vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish masalalari bo'yicha Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi talablarning sabablari quyidagilardan iborat: a) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, ustavga, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlariga rioya qilmaslik; b) Bankning aksiyadorlarga va ularning mulkiy huquqlariga zarar yetkazish, shu jumladan moliyaviy-xo'jalik faoliyatining sezilarli darajada yomonlashishi, Bank foydasi va rentabelligining pasayishi, ish va xizmatlarning amalga oshirilishining asossiz qisqarishi; c) Bankda iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) belgilari yoki yuzaga kelishi tahdidining mavjudligi, davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar oldida, xodimlarga ish haqini to'lash bo'yicha barqaror qarzlarning mavjudligi.	6.5.2. Мотивами требований о проведении внеочередного Общего собрания акционеров по вопросам досрочного прекращения полномочий Совета Банка являются: а) несоблюдение законодательства Республики Узбекистан, устава, решений Общего собрания акционеров; b) причинение Банка убытков и нанесение ущерба имущественным правам акционеров, в том числе связанных с существенным ухудшением финансово – хозяйственной деятельности, снижением прибыли и рентабельности Банка, неоправданным сокращением реализации работ и услуг; c) наличие признаков или угрозы возникновения экономической несостоятельности (Банкротства) Банка, наличие устойчивой задолженности перед государственным бюджетом, внебюджетными фондами, по выплате заработной платы работникам.
6.5.3. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi talabda yig'ilish kun tartibiga kiritilishi kerak bo'lgan masalalar ularni kiritish sabablari ko'rsatilgan holda ta'riflangan bo'lishi kerak. Agar Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish talabi Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish masalasi bilan bog'liq bo'lsa, bunday talab vakolatlarni muddatidan ilgari tugatish masalasi bilan bir qatorda, Bank Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash masalasini kun tartibiga kiritish bo'yicha taklifni o'z ichiga olishi shart.	6.5.3. В требовании о проведении внеочередного Общего собрания акционеров должны быть сформулированы вопросы, подлежащие внесению в повестку дня собрания, с указанием мотивов их внесения. В случае, если созыв внеочередного Общего собрания акционеров обусловлен внесением вопроса о досрочном прекращении полномочий членов Совета Банка, требовании о созыве такого собрания помимо вопроса о досрочном прекращении полномочий Совета Банка должны содержаться предложения о включении в повестку дня вопросов избрания нового состава Совета Банка.
6.5.4. Bank Kuzatuv kengashi Bank ovoz beruvchi aksiyalarning kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyador(lar)ning talabiga ko'ra chaqiriladigan Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibidagi masalalarning ta'rifiga o'zgartirishlar kiritishga haqli emas.	6.5.4. Совет Банка не вправе вносить изменения в формулировки вопросов в повестку дня внеочередного Общего собрания акционеров, созываемого по требованию акционера (акционеров), являющегося владельцем не менее чем пяти процентов голосующих акций Банка.
6.5.5. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talab aksiyador(lar)dan chiqqan taqdirda, bu talabda umumiy yig'ilishni chaqirishni talab qilayotgan aksiyador(lar)ning ismi-sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.	6.5.5. В случае если требование о созыве внеочередного Общего собрания акционеров исходит от акционера (акционеров), оно должно содержать имя (наименование) акционера (акционеров), требующего созыва собрания, с указанием количества, типа принадлежащих ему акций.
6.5.6. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talab Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilgan shaxs (shaxslar) tomonidan imzolanishi kerak.	6.5.6. Требование о созыве внеочередного Общего собрания акционеров подписывается лицом (лицами), требующим созыва внеочередного Общего собрания акционеров.
6.5.7. Bank ovoz beruvchi aksiyalarning kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyador(lar) Aksiyadorlarning	6.5.7. В течение 10 дней с даты предъявления требования акционера (акционеров), являющегося

navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirish to‘g‘risidagi talabni taqdim etgan sanadan e’tiboran 10 kun ichida Bank Kuzatuv kengashi Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirish to‘g‘risida yoki yig‘ilishni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilishi kerak.	владельцем не менее чем пяти процентов голосующих акций Банка, о созыве внеочередного Общего собрания Советом должно быть принято решение о созыве внеочередного Общего собрания акционеров либо об отказе в его созыве.
6.5.8. Bank ovoz beruvchi aksiyalarning kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyador(lar)ning talabiga ko‘ra Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirishni rad etish to‘g‘risidagi qaror quyidagi hollarda qabul qilinishi mumkin: a) Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirishni talab qilayotgan aksiyador(lar) ushbu bandning birinchi qismida nazarda tutilgan miqdordagi Bank ovoz beruvchi aksiyalarning egasi bo‘lmasa; b) kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masalalardan hech biri Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kirmasa; c) kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masala qonunchilik talablariga muvofiq bo‘lmasa.	6.5.8. Решение об отказе от созыва внеочередного Общего собрания акционеров по требованию акционера (акционеров), являющегося владельцем не менее чем пяти процентов голосующих акций Банка, может быть принято в случаях, если: а) акционер (акционеры), требующий созыва внеочередного Общего собрания акционеров, не является владельцем предусмотренного частью первой настоящего пункта количества голосующих акций Банка; б) ни один из вопросов, предложенных для внесения в повестку дня, не отнесен к компетенции Общего собрания акционеров; в) вопрос, предлагаемый для внесения в повестку дня, не соответствует требованиям законодательства.
6.5.9. Bank Kuzatuv kengashining Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirish to‘g‘risidagi qarori yoki bunday yig‘ilishni chaqirishni rad etish haqidagi asoslantirilgan qarori yig‘ilish chaqirishni talab qilgan shaxslarga qaror qabul qilingan paytdan e’tiboran uch ish kunidan kechiktirmay yuboriladi.	6.5.9. Решение Совета Банка о созыве внеочередного Общего собрания акционеров или мотивированное решение об отказе от его созыва направляется лицам, требующим его созыва, не позднее трех рабочих дней с момента его принятия.
6.5.10. Bank Kuzatuv kengashining Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirishni rad etish to‘g‘risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.	6.5.10. Решение Совета Банка об отказе от созыва внеочередного Общего собрания акционеров может быть обжаловано в суд.
6.5.11. Bank Kuzatuv kengashi ushbu Nizomning 6.5.7-bandida belgilangan muddat ichida Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirish to‘g‘risida qaror qabul qilmagan taqdirda yoki uni chaqirishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilgan taqdirda, Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi uni chaqirishni talab qilgan shaxslar tomonidan chaqirilishi mumkin.	6.5.11. В случае если в течение установленного пунктом 6.5.7. настоящего Положения срока Советом Банка не принято решение о созыве внеочередного Общего собрания акционеров или принято решение об отказе от его созыва, внеочередное Общее собрание акционеров может быть созвано лицами, требующими его созыва.
6.5.12. Bunday hollarda Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlarning o‘rni Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga ko‘ra Bank mablag‘lari hisobidan qoplanishi mumkin.	6.5.12. В этом случае расходы по подготовке к проведению Общего собрания акционеров могут быть возмещены по решению Общего собрания акционеров за счет средств Банка.
6.5.13. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazishga tayyorgarlik Bank Kuzatuv kengashi tomonidan yoki qonunchilikda belgilangan hollarda Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini chaqiruvchi shaxs tomonidan mazkur Nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.	6.5.13. Подготовку к проведению внеочередного Общего собрания акционеров проводит Совет Банка, либо в случаях, установленных законодательством лицо, созывающее Общее собрание акционеров в порядке, установленном настоящим положением.
6.6. AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG‘ILISHINING KVORUMI	**6.6. КВОРУМ ОБЩЕГО СОБРАНИЯ АКЦИОНЕРОВ**

6.6.1. Agar Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tkazish tugallangan paytda Bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami ellik foizidan ko‘proq ovoziga ega bo‘lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa, Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo‘ladi. 6.6.2. Agar imtiyozli aksiyalar kun tartibidagi faqat bitta yoki bir nechta masala bo‘yicha ovoz bersa, yig‘ilishning kvorumi taqdim etilgan oddiy aksiyalar soniga qarab belgilanadi va ushbu masalalar bo‘yicha berilgan ovozlar ovoz beruvchi oddiy va imtiyozli aksiyalarning umumiy sonidan kelib chiqqan holda hisoblanadi. 6.6.3. Agar yig‘ilishning belgilangan boshlanish vaqtidan 120 daqiqadan ko‘proq vaqt o‘tib ham kvorum bo‘lmasa, Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig‘ilishi o‘tkazish sanasi e’lon qilinadi. Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig‘ilishida kun tartibini o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi. 6.6.4. Agar aksiyadorlarning o‘tkazilmay qolgan yig‘ilishi o‘rniga chaqirilgan takroriy umumiy yig‘ilishida ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tkazish tugallangan paytda Bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami qirq foizidan ko‘proq ovoziga ega bo‘lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig‘ilishi vakolatli bo‘ladi. 6.6.5. Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risida xabar berish ushbu Nizomda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi. 6.6.6. Agar takroriy yig‘ilishda kvorum to‘planmasa, u holda aksiyadorlar tashabbusi bilan chaqirilayotgan yig‘ilish bo‘lib o‘tmagan deb hisoblanadi va bundan keyin chaqirilmaydi. Bank Kuzatuv kengashi yoki Bank auditori tashabbusi bilan chaqirilayotgan yig‘ilish kvorum ta’minlanmaguncha bir necha marta chaqiriladi. 6.6.7. Kvorum bo‘lmaganligi sababli aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish sanasi 20 kundan kam muddatga ko‘chirilgan taqdirda, umumiy yig‘ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar o‘tkazilmay qolgan umumiy yig‘ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlarning reyestriga muvofiq aniqlanadi.	6.6.1. Общее собрание акционеров правомочно (имеет кворум), если на момент окончания регистрации для участия в Общем собрании акционеров зарегистрировались акционеры (их представители), обладающие в совокупности более чем пятьюдесятью процентами голосов размещенных голосующих акций Банка. 6.6.2. В случае если привилегированные акции голосуют только по одному или нескольким вопросам повестки дня, кворум собрания определяется от количества представленных простых акций, а подсчет голосов по указанным вопросам производится от Общего количества голосующих простых и привилегированных акций. 6.6.3. Если в течение более чем 120 минут после установленного времени начала собрания кворум еще не собран, объявляется дата проведения повторного Общего собрания акционеров. Изменение повестки дня при проведении повторного Общего собрания акционеров не допускается. 6.6.4. Повторное Общее собрание акционеров, созванное взамен несостоявшегося, правомочно, если на момент окончания регистрации для участия в нем зарегистрировались акционеры (их представители), обладающие в совокупности более чем сорока процентами голосов размещенных голосующих акций Банка. 6.6.5. Сообщение о проведении повторного Общего собрания акционеров осуществляется в порядке, установленном настоящим положением. 6.6.6. Если на повторном собрании не собран кворум, то собрание, инициируемое акционерами, считается несостоявшимся и больше не созывается. Собрание, инициируемое Советом Банка или аудитором Банка, созывается до тех пор, пока не будет обеспечен кворум. 6.6.7. При переносе даты проведения Общего собрания акционеров в связи с отсутствием кворума менее чем на 20 дней акционеры, имеющие право на участие в Общем собрании, определяются в соответствии с реестром акционеров, имевших право на участие в несостоявшемся Общем собрании.
6.7. UMUMIY YIG‘ILISHNING ISHCHI ORGANLARI	**6.7. РАБОЧИЕ ОРГАНЫ ОБЩЕГО СОБРАНИЯ**
6.7.1. Quyidagilar Umumiy yig‘ilishning ishchi organlari hisoblanadi: rayosat, sanoq komissiyasi, kotib (kotibiyat). 6.7.2. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining rayosat va yig‘ilishda raislik qiluvchi Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida saylanadi. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini Bank Kuzatuv kengashining raisi olib boradi,	6.7.1. Рабочими органами Общего собрания являются: президиум, счетная комиссия, секретарь (секретариат). 6.7.2. Президиум и Председательствующий Общего собрания акционеров избираются на Общем собрании акционеров. Общее собрание акционеров ведет председатель Совета Банка, а в случае его

u uzrli sabablarga ko‘ra bo‘lmagan taqdirda esa – Bank Kuzatuv kengashi a’zolaridan biri olib boradi.	отсутствия по уважительным причинам — один из членов Совета Банка.
6.7.3. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida raislik qiluvchi yig‘ilish rayosatiga boshchilik qiladi, yig‘ilish olib borilishini ta’minlaydi va buning uchun o‘z vazifalarini zarur tartibda bajarilishi uchun zarur bo‘lgan barcha vakolatlarga ega bo‘ladi.	6.7.3. Председательствующий Общего собрания акционеров возглавляет президиум собрания, обеспечивает ведение собрания и обладает для этого всеми полномочиями, необходимыми для надлежащего исполнения им своих обязанностей.
6.7.4. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida raislik qiluvchi Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishini audio va video tasvirga olish hamda internet tarmog‘ida translatsiya qilishga ruxsat berishga haqli.	6.7.4. Председательствующий Общего собрания акционеров вправе разрешить проведение аудио - и видеозаписи, и трансляции Общего собрания акционеров в сети интернет.
6.7.5. Umumiy yig‘ilishda raislik qiluvchi yig‘ilishning borishiga rahbarlik qiladi, Umumiy yig‘ilish ishchi organlari ishini muvofiqlashtiradi, masalalarni muhokama qilish tartibini belgilaydi, ma’ruzachilarning nutq so‘zlash vaqtini cheklaydi, yig‘ilishni olib borish va ovoz berish davomida tushuntirishlar beradi, zalda tartib o‘rnatilishini nazorat qiladi.	6.7.5. Председательствующий Общего собрания руководит ходом собрания, координирует действия рабочих органов Общего собрания, определяет порядок обсуждения вопросов, ограничивает время выступления докладчиков, дает разъяснения по ходу ведения собрания и голосования, контролирует наличие порядка в зале.
6.7.6. Umumiy yig‘ilishda raislik qiluvchi Umumiy yig‘ilish bayonnomasini imzolaydi.	6.7.6. Председательствующий Общего собрания подписывает протокол Общего собрания.
6.7.7. Ovozlarni sanab chiqish, Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro‘yxatga olish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun Bank Kuzatuv kengashi tomonidan sanoq komissiyasi tuziladi va uning a’zolari soni hamda shaxsiy tarkibi Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanadi.	6.7.7. Для подсчета голосов, регистрации акционеров для участия на Общем собрании акционеров, а также выдачи бюллетеней для голосования Советом Банка создается счетная комиссия, количественный и персональный состав которой утверждается Общим собранием акционеров.
6.7.8. Sanoq komissiyasi funksiyalarini bajarish uchun mustaqil ekspertlar jalb qilingan taqdirda, sanoq komissiyasining ishi ular tomonidan amalga oshiriladi.	6.7.8. В случае привлечения независимых экспертов для выполнения функций счетной комиссии работу счетной комиссии осуществляют они.
6.7.9. Sanoq komissiyasining tarkibi kamida uch kishidan iborat bo‘lishi kerak. Sanoq komissiyasi tarkibiga Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvining a’zolari, shuningdek ana shu lavozimlarga nomzodi ko‘rsatilgan shaxslar kiritilishi mumkin emas.	6.7.9. В составе счетной комиссии не может быть менее трех человек. В счетную комиссию не могут входить члены Совета Банка и Правления, а также лица, выдвигаемые на эти должности.
6.7.10. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ovoz berish «Bankning ovoz beruvchi bitta aksiya – bitta ovoz» prinsipi bo‘yicha amalga oshiriladi, Bank Kuzatuv kengashi a’zolarini saylash bo‘yicha kumulyativ ovoz berish holatlari bundan mustasno.	6.7.10. Голосование на Общем собрании акционеров осуществляется по принципу «одна голосующая акция Банка — один голос», за исключением случаев проведения кумулятивного голосования по выборам членов Совета Банка.
6.7.11. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida kun tartibidagi masalalar bo‘yicha ovoz berish ovoz berish byulletenlari orqali amalga oshiriladi.	6.7.11. Голосование на Общем собрании акционеров по вопросам повестки дня осуществляется бюллетенями для голосования.
6.7.12. Ovoz berilganda ovoz beruvchi qaysi masala bo‘yicha ehtimolda tutilgan ovoz berish variantlaridan faqat bittasini qoldirgan bo‘lsa, o‘sha masala bo‘yicha berilgan ovozlar hisobga olinadi. Mazkur talabni buzgan holda to‘ldirilgan ovoz berish byulletenlari haqiqiy emas deb topiladi va ulardagi masalalar bo‘yicha berilgan ovozlar hisobga olinmaydi.	6.7.12. При голосовании засчитываются голоса по тем вопросам, по которым голосующим оставлен только один из возможных вариантов голосования. Бюллетени для голосования, заполненные с нарушением указанного требования, признаются недействительными и голоса по содержащимся в них вопросам не подсчитываются.
6.7.13. Agar ovoz berish byulletenida ovozga qo‘yilgan bir nechta masala ko‘rsatilgan bo‘lsa, bir yoki bir nechta masalaga nisbatan mazkur bandning birinchi qismida	6.7.13. В случае, если бюллетень для голосования содержит несколько вопросов, поставленных на голосование, несоблюдение требования, указанного в абзаце первом данного пункта в отношении одного

ko‘rsatilgan talabga rioya etilmaganligi byulletenning umuman haqiqiy emas deb topilishiga sabab bo‘lmaydi.	или нескольких вопросов, не влечет за собой признания бюллетеня для голосования недействительным в целом.
6.7.14. Sanoq komissiyasi o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarish masalasida mustaqil ishlovchi yig‘ilishning ishchi organi hisoblanadi va Bank Kuzatuv kengashining taklifiga ko‘ra Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan saylanadi.	6.7.14. Счетная комиссия в части исполнения возложенных на нее обязанностей является независимым постоянно действующим рабочим органом собрания и избирается Общем собранием акционеров по предложению Совета Банка.
6.7.15. Sanoq komissiyasi vakolatlarining muddati u Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan saylangan paytdan boshlab aksiyadorlarning tegishli yig‘ilishi (yillik yoki navbatdan tashqari) tomonidan sanoq komissiyasining yangi tarkibi saylanishi (yoki qayta saylanishi) paytigacha hisoblanadi.	6.7.15. Срок полномочий счетной комиссии исчисляется с момента ее избрания Общем собранием акционеров до момента избрания (или переизбрания) нового состава счетной комиссии соответствующим собранием акционеров (годовым или внеочередным).
6.7.16. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish paytida sanoq komissiyasi Bank Kuzatuv kengashining topshirig‘iga ko‘ra quyidagi funksiyalarini amalga oshiradi: a) reyestr asosida Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida qatnashish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar ro‘yxatini tuzadi; b) ovoz berish byulletenlari va umumiy yig‘ilishning boshqa materiallarini beradi, berilgan byulletenlar hisobini olib boradi.	6.7.16. При подготовке к проведению Общего собрания акционеров счетная комиссия по поручению Совета Банка осуществляет следующие функции: а) на основании реестра составляет список акционеров, имеющих право на участие в Общем собрании акционеров; б) выдает бюллетени для голосования и иные материалы Общего собрания, ведет учет выданных бюллетеней.
6.7.17. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida Aksiyadorlarning oldingi umumiy yig‘ilishi tomonidan saylangan sanoq komissiyasi quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi: a) Umumiy yig‘ilishda qatnashish uchun aksiyadorlarni (ularning vakillarini) ro‘yxatdan o‘tkazadi; b) ishonomalar va ular tomonidan beriladigan huquqlar hisobini yuritadi; c) ovoz berish byulletenlari va umumiy yig‘ilishning boshqa axboroti (materiallari)ni beradi; d) Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish oldidan aksiyadorlarga kun tartibi bo‘yicha zarur axborotni beradi; e) Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi kvorumi mavjudligini belgilaydi.	6.7.17. На Общем собрании акционеров счетная комиссия, избранная предыдущим Общем собранием акционеров, осуществляет следующие функции: а) регистрирует акционеров (их представителей) для участия в Общем собрании; б) ведет учет доверенностей и предоставляемых ими прав; в) выдает бюллетени для голосования и иную информацию (материалы) Общего собрания; г) предоставляет акционерам до проведения Общего собрания акционеров необходимую информацию по повестке дня; д) определяет наличие кворума Общего собрания акционеров.
6.7.18. Tarkibi bo‘lib o‘tayotgan Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi davomida tasdiqlangan sanoq komissiyasi: a) aksiyadorlar (ularning vakillari) tomonidan Umumiy yig‘ilishda ovoz berish huquqini amalga oshirish munosabati bilan paydo bo‘luvchi masalalarni tushuntiradi; b) ovoz berishga qo‘yilayotgan masalalar bo‘yicha ovoz berish tartibini tushuntiradi; c) ovoz berishning belgilangan tartibini va aksiyadorlarning ovoz berishda qatnashish huquqini ta’minlaydi; d) ovozlarni sanaydi va ovoz berish yakunlarini chiqaradi; e) ovoz berish yakunlari to‘g‘risida bayonnoma tuzadi;	6.7.18. Счетная комиссия, состав которой был утвержден в ходе проходящего Общего собрания акционеров: а) разъясняет вопросы, возникшие в связи с реализацией акционерами (их представителями) права голоса на Общем собрании; b) разъясняет порядок голосования по вопросам, выносимым на голосование; c) обеспечивает установленный порядок голосования и права акционеров на участие в голосовании; d) подсчитывает голоса и подводит итоги голосования; e) составляет протокол об итогах голосования; f) передает в архив бюллетени для голосования.

f) ovoz berish byulletenlarini arxivga topshiradi.	
6.8. AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG‘ILISHINI O‘TKAZISH TARTIBI	**6.8. ПОРЯДОК ВЕДЕНИЯ ОБЩЕГО СОБРАНИЯ АКЦИОНЕРОВ**
6.8.1. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini olib borish tartibi aksiyadorlarning har bir umumiy yig‘ilishida mazkur Nizomga muvofiq tasdiqlanadi. 6.8.2. Bank Kuzatuv kengashi raisi umumiy yig‘ilishning rayosati va kotibini (kotibiyatini), shuningdek, zarur bo‘lganda, sanoq komissiyasining yangi tarkibini saylashni taklif etadi. 6.8.3. Umumiy yig‘ilishni olib borish tartibi yig‘ilishning boshlanishi va taxminan tamom bo‘lishi vaqtini, nutqlar qancha davom etishi va tanaffuslarni, kun tartibi masalalarining izchilligini, kun tartibi masalalari bo‘yicha ma`ruzachilarning familiyalari va lavozimlarini, ovoz berishni amalga oshirish va uning natijalarini e`lon qilish tartibini nazarda tutadi. 6.8.4. Yig‘ilish davomida paydo bo‘luvchi joriy masalalarni rais, muhokama qilinayotgan masala bo‘yicha Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida bosh prinsipidan: har bir qatnashchining belgilangan vaqt doirasida so‘zga chiqish huquqidan foydalanishi mumkinligidan kelib chiqib, yakka boshchilik bilan hal etadi. 6.8.5. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida Bank Kuzatuv kengashi, Bank Boshqaruvi mukofotlari va kompensatsiyalari miqdori, shuningdek sof foydani taqsimlash, taklif etilayotgan miqdor asoslantirilgan holda dividendlar miqdori, ularning Bank tomonidan qabul qilingan dividend siyosatiga muvofiqligini baholash (zarur bo‘lganda, sof foydaning ma`lum qismining Bankni rivojlantirish ehtiyojlariga yo‘naltirilgan hajmlari borasida tushuntirishlar va iqtisodiy asoslar) to‘g‘risidagi ma`lumotlar batafsil oshkor qilinadi (e`lon qilinadi). 6.8.6. Kun tartibidagi masalalarni muhokama qilishda qatnashish istagini bildirganlar umumiy yig‘ilish kotibiga (kotibiyatiga) muhokama qilinadigan masalani ko‘rsatgan holda buyurtmanoma beradi. 6.8.7. Kun tartibining barcha masalalari muhokama qilingandan so‘ng raislik qiluvchi Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishini yopiq deb e`lon qiladi. 6.8.8. Bank Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etgan shaxsga o‘zi tomonidan to‘ldirilgan ovoz berish byulletenining nusxasini ushbu shaxs hisobidan tayyorlash imkoniyatini beradi.	6.8.1. Порядок ведения Общего собрания акционеров утверждается в соответствии с настоящим Положением на каждом Общем собрании акционеров. 6.8.2. Председатель Совета Банка предлагает избрать президиум и секретаря (секретариат) Общего собрания, а также в случае необходимости новый состав счетной комиссии. 6.8.3. Порядок ведения Общего собрания предусматривает время начала и предполагаемого окончания работы собрания, продолжительность выступлений и перерывов, последовательность вопросов повестки дня, фамилии и должности докладчиков по вопросам повестки дня, порядок осуществления голосования и объявления его результатов. 6.8.4. Текущие вопросы, возникающие по ходу собрания, Председатель решает единолично, исходя из главного принципа: правом выступить на Общем собрании акционеров по обсуждаемому вопросу может воспользоваться каждый участник в пределах отведенного времени. 6.8.5. На Общем собрании акционеров подробно раскрывается (объявляется) информации о размере вознаграждений и компенсаций Совета Банка, Правления Банка, а также о распределении чистой прибыли, размера дивидендов, с обоснованием предлагаемого размера, оценки их соответствия принятой Банком дивидендной политике (в случае необходимости, пояснения и экономические обоснования объемов направления определенной части чистой прибыли на нужды развития Банка). 6.8.6. Желающие принять участие в обсуждении вопросов повестки дня подают секретарю (в секретариат) Общего собрания письменную заявку с указанием вопроса для обсуждения. 6.8.7. После обсуждения всех вопросов повестки дня Председательствующий объявляет Общее собрание акционеров закрытым. 6.8.8. Банк предоставляет лицу, принимавшему участие на Общем собрании акционеров, возможность произведения за счет такого лица копии заполненного им бюллетеня.
6.9. AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG‘ILISHINING BAYONNOMASI	**6.9. ПРОТОКОЛ ОБЩЕГО СОБРАНИЯ АКЦИОНЕРОВ**

6.9.1. Umumiy yig‘ilish kotibiyatining soni va shaxsiy tarkibi Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanadi. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishining kotibi sifatida Bankning Korporativ maslahatchisi saylanishi (chiqishi) mumkin.	6.9.1. Количественный и персональный состав секретариата Общего собрания утверждается Общем собранием акционеров. В качестве секретаря Общего собрание акционеров может быть избран (вступать) Корпоративный консультант Банка.
6.9.2. Umumiy yig‘ilish kotibiyati: a) Umumiy yig‘ilishning borishini bayonnomaga qayd etib boradi; b) Yozma buyurtmanomalar bo‘yicha yig‘ilish kun tartibi masalalarini muhokama qilishda qatnashish istagini bildiruvchilar ro‘yxatini olib boradi; c) Umumiy yig‘ilish tamom bo‘lgandan so‘ng o‘n kundan kechikmay Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi bayonnomasini ikki nusxada tuzadi.	6.9.2. Секретариат Общего собрания: a) протоколирует ход ведения Общего собрания; b) ведет запись желающих принять участие в обсуждении вопросов повестки дня собрания по письменным заявкам; c) составляет протокол Общего собрания акционеров в двух экземплярах не позднее десяти дней после закрытия Общего собрания акционеров.
6.9.3. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi bayonnomasida quyidagilar ko‘rsatiladi: a) Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, joy va vaqt; b) Bank ovoz beruvchi aksiyalari egasi bo‘lgan aksiyadorlar egalik qilgan ovozlarning umumiy soni; c) Yig‘ilishda qatnashgan aksiyadorlar egalik qilgan ovozlar soni; d) Yig‘ilish raisi (ra‘osati) va kotibi (kotibiyati), yig‘ilish kun tartibi; e) Nutqlarning asosiy qoidalari, ovoz berishga qo‘yilgan masalalar, ovoz berish yakunlari va yig‘ilish tomonidan qabul qilingan qarorlar; f) Audio va video tasvirga olingan hamda internet tarmog‘ida translatsiya qilingan bo‘lsa, ushbu holat ham ko‘rsatiladi.	6.9.3. В протоколе Общего собрания акционеров указываются: a) дата, место и время проведения Общего собрания акционеров; b) общее количество голосов, которыми обладают акционеры — владельцы голосующих акций Банка; c) количество голосов, которыми обладают акционеры, принимающие участие в собрании; d) председательствующий (президиум) и секретарь (секретариат) собрания, повестка дня собрания; e) основные положения выступлений, вопросы, поставленные на голосование, итоги голосования и принятые собранием решения. f) в случае проведение аудио- и видеозаписи, и трансляции Общего собрания акционеров в сети интернет, также указывается данная информация.
6.9.4. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi bayonnomasining ikkala nusxasi ham Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida raislik qilgan va Aksiyadorlar umumiy yig‘ilish kotibi tomonidan imzolanishi kerak.	6.9.4. Оба экземпляра протокола Общего собрания акционеров подписываются Председательствующим на Общем собрании и секретарем Общего собрания акционеров.
6.9.5. Sanoq komissiyasi bayonnomasi yig‘ilishning maxsus qarori bilan tasdiqlanmaydi, balki ma’lumot uchun qabul qilinadi hamda Umumiy yig‘ilish bayonnomasiga tikib qo‘yilishi kerak.	6.9.5. Протоколы счетной комиссии особым решением собрания не утверждаются, а принимаются к сведению и подлежат приобщению к протоколу Общего собрания.
6.9.6. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi bayonnomasi imzolanganidan so‘ng sanoq komissiyasi yig‘ilish hujjatlarini, shu jumladan Umumiy yig‘ilishning ro‘yxatdan o‘tish ro‘yxatini, sanoq komissiyasi a’zolari tomonidan imzolangan muhrlangan ovoz berish byulletenlarini, ovoz berish yakunlari to‘g‘risidagi bayonnomalarni va Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi bayonnomasini saqlash uchun Bank arxiviga topshiradi	6.9.6. После подписания протокола Общего собрания акционеров счетная комиссия передает в архив Банка на хранение документы собрания, включая регистрационный список Общего собрания, опечатанные бюллетени для голосования, протоколы об итогах голосования, подписанные членами счетной комиссии, и протокол Общего собрания акционеров.
7. SAQLASH	**7. ХРАНЕНИЕ**
7.1. Mazkur Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi to‘g‘risidagi Nizomning asl nusxasi Bank Yuridik departamentida saqlanadi. PDF formatidagi elektron nusxasi foydalanish uchun Umumiy serverda saqlanadi. Nizomning DOCX formatidagi elektron nusxasi Bank Yuridik departamentida va ushbu hujjatni ishlab	7.1. Оригинальный экземпляр настоящего Положения об Общем Собрании Акционеров хранится в Юридическом департаменте Банка. Электронный экземпляр в формате PDF хранится на Общем сервере для пользования. Электронный экземпляр Положения в формате DOCX хранится в

chiquvchi tomonidan, navbatdagi o‘zgartishlar va qo‘shimchalarni kiritish uchun saqlanadi.	Юридическом департаменте и разработчика для последующего внесения изменений и дополнений.
8. XULOSA	**8. ЗАКЛЮЧЕНИЕ**
8.1. Mazkur Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi to‘g‘risidagi Nizom Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan paytdan e’tiboran kuchga kiradi. 8.2. Mazkur Nizomning ruscha va o‘zbekcha matnlari o‘rtasida tafovutlar bo‘lganda, o‘zbek tilidagi matni ustuvor hisoblanadi. 8.3. Mazkur Nizom kuchga kirishi munosabati bilan 28.06.2024-yilda 64-sonli bayonnoma bilan tasdiqlangan «InFinBank» AJ Aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi to‘g‘risidagi Nizom (Ro‘yxat raqami: ПК-29) o‘z kuchini yo‘qotadi. 8.4. Agar ushbu Nizomning ayrim moddalari O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga va/yoki Bank Ustaviga zid kelsa, ushbu moddalar tomonidan tartibga solingan qoidalar o‘z kuchini yo‘qotadi va ularda ko‘rsatilgan masalalar ushbu Nizomga tegishli o‘zgartishlar kiritilguncha, O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi va/yoki Bank Ustavi asosida tartibga solinadi.	8.1. Настоящее Положение об Общем собрании акционеров банка вступает в силу с момента его утверждения в установленном порядке Общим собранием акционеров. 8.2. В случае каких-либо расхождений между русским и узбекским текстами настоящего Положения, преимущественную силу имеет узбекский текст. 8.3. В связи с вступлением в силу настоящего Положения Положение об Общем Собрании Акционеров АО «InFinBank» (Рег. ПК-29, утвержденное протоколом №64 от 28.06.2024г., утрачивает свою силу. 8.4. Если отдельные статьи настоящего Положения вступают в противоречие с действующим законодательством Республики Узбекистан и/или Уставом Общества, эти статьи утрачивают силу и в части регулируемых этими статьями вопросов следует руководствоваться нормами действующего законодательства Республики Узбекистан и/или Устава Общества до момента внесения соответствующих изменений в настоящее Положение.

9. ILOVALAR/ПРИЛОЖЕНИЯ

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi
to'g'risida Nizomga
1-ilova/
ПРИЛОЖЕНИЕ № 1
к Положению об
Общем собрании акционеров

"InFinBank" AJ aksiyadorlarining _____yilda o'tkaziladigan

navbatdagi (navbatdan tashqari) umumiy yig'ilishining
QAYD ETISH RO'YXATI

РЕГИСТРАЦИОННЫЙ СПИСОК
очередного (внеочередного) Общего собрания акционеров АО«InFinBank», проводимого «__» _____ 20____ года.

T/p/ № №	Aksiyadorning F.I.Sh. (nomi)/ Ф.И.О. (наименование акционера)	Ovoz beruvchi aksiyalar soni /Кол-во гол-их акций	Aksiyador imzosi / Подпись акционера	Vakil bor bo'lsa to'ldiriladi/Заполняется при наличии представителя				
				Vakilning F.I.Sh ./Ф.И.О. представителя	Ishonchnoma raqami / Номер доверенности	Ishonchnoma berilgan sana/Дата выдачи доверенности	Ovoz beruvchi aksiyalar soni/Коли-во гол-их акций	Vakil imzosi / Подпись представителя
1	2	3	4	5	6	7	8	9

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining barcha ro'yxatdan o'tkazilgan qatnashchilari umumiy miqdorda _____ dona ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo'lgan jami _____ kishi.

Всего зарегистрированных участников Общего собрания акционеров _____ человек, обладающих в совокупности _____ шт. голосующих акций

Kvorum mavjudligi (ovoz beruvchi aksiyalarning umumiy sonidan foizlarda) _____%.
Наличие кворума (в процентах от Общего числа голосующих акций) _____%.
Sanoq komissiyasi a'zolari /Члены счетной комиссии:

_____ F.I.Sh. /Ф.И.О.
(imzo/подпись)
_____ F.I.Sh. /Ф.И.О.
(imzo/подпись)
_____ F.I.Sh. /Ф.И.О.
(imzo/подпись)

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risida Nizomga
2-ilova/

ПРИЛОЖЕНИЕ № 2
к Положению об
Общем собрании акционеров
"InFinBank" AJ Kuzatuv kengashining
20___y. _____dagi
qarori bilan tasdiqlangan
Утвержден решением Совета
АО «InFinBank» от __.__.20__г.

"InFinBank" AJ aksiyadorlarining yillik (navbatdan tashqari) umumiy yig'ilishida ovoz berish uchun _____-son Byulleteni

БЮЛЛЕТЕНЬ № _____
для голосования на годовом (внеочередном) общем собрании акционеров АО «InFinBank»

Ovoz beruvchi aksiyalar soni
Количество голосующих акций

_____
dona/штук

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish joyi /Место проведения общего собрания акционеров:
_____
Yig'ilish sanasi /Дата собрания: «__» _____ 20__ y./г. Vaqti/время: _____
Aksiyador/Акционер _____
yur.shaxsning nomi yoki jis.shaxsning F.I.Sh /наименование юр.лица или ФИО физ.лица
Vakilning F.I.Sh. va ishonchnoma raqami /Ф.И.О. Представителя и № доверенности _____
_____

T/p/ №	Kun tartibi/ Повестка дня	Ovozga qo'yilgan masala ta'rifi /Формулировка вопроса, поставленного на голосование	Masala bo'yicha ovoz berish variantlari (keraksizi o'chirilsin)/Варианты голосования по вопросу (ненужное зачеркнуть)		
1			tarafdor/за	qarshi/против	betaraf/воздержался
2			tarafdor /за	qarshi /против	betaraf /воздержался
…			tarafdor /за	qarshi /против	betaraf /воздержался

Ovozga qo'yilgan masala ta'rifi (kumulyativ ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi) /Формулировка вопроса, поставленного на голосование *(осуществляется кумулятивным голосованием)* *
Kumulyativ ovoz berish bo'yicha ovoz beruvchi aksiyalarning umumiy soni /Общее количество голосующих акций по кумулятивному голосованию _____
** Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni bank Kuzatuv kengashiga saylanishi kerak bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi hamda aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli /При кумулятивном голосовании число голосов, принадлежащих каждому акционеру, умножается на число лиц, которые должны быть избраны в Совет Банка, и акционер вправе отдать полученные таким образом голоса полностью за одного кандидата или распределить их между двумя и более кандидатами.*

T/p/ №	Nozodlar/ Кандидаты	Nomzodlar haqida ma'lumotlar / Сведения о кандидатах	Berilgan ovozlar soni /Количество отданных голосов
1			
2			

Aksiyador yoki uning vakilining imzosi /Подпись акционера или его представителя

_____
(byuleten aksiyador yoki uning vakili tomonidan imzolangan bo'lishi lozim /бюллетень должен быть подписан акционером или его представителем)

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi
to'g'risida Nizomga

3-ilova/

ПРИЛОЖЕНИЕ № 3
к Положению об
Общем собрании акционеров

"InFinBank" AJ
aksiyadorlarining yillik (navbatdan tashqari) umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida
Bildirishnoma

Hurmatli _____, _____ manzilida joylashgan "InFinBank" AJ, tel.: _____, Sizga shuni ma'lum qiladiki, 20____ y. "_____"_____ da soat _____:_____ da _____ manzilida aksiyadorlik jamiyatimizning aksiyadorlarining yillik (navbatdan tashqari) umumiy yig'ilishi bo'lib o'tadi.

Aksiyadorlarining yillik (navbatdan tashqari) umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega bo'lgan asiyadorlar ro'yxati 20__yil "_____"_____ holatiga shakllantirilgan aksiyadorlar reyestri asosida tuziladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qatnashadigan aksiyadorlarni ro'yxatga olish soat _____:_____ da boshlanadi va soat _____:_____ gacha davom etadi.

E'tiboringizga Aksiyadorlarning yillik (navbatdan tashqari) umumiy yig'ilishining quyidagi kun tartibini etkazamiz:

1.
2.
3.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish vaqtida umumiy yig'ilishning quyidagi materiallari bilan tanishishingiz mumkin:

1.
2.
3.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun aksiyadorlarda pasport, aksiyadorlar vakillarida esa O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma (jismoniy shaxslar uchun – notarial tasdiqlangan, yuridik shaxslar uchun – ushbu yuridik shaxs tomonidan berilgan) bo'lishi kerak.

УВЕДОМЛЕНИЕ
о проведении годового (внеочередного) Общего собрания акционеров
АО «InFinBank»

Уважаемый(ая) _____, **АО «InFinBank»**, расположенное по адресу:_____, контактный телефон: _____, извещает Вас, что «____» _____ 20__г. в ___ч.___мин. по адресу _____ состоится годовое (внеочередное) Общее собрание акционеров нашего акционерного Общества.

Список акционеров, имеющих право на участие в годовом (внеочередном) Общем собрании акционеров, будет составлен на основании реестра акционеров, сформированного по состоянию на «___» _____ 20__г.

Регистрация акционеров, принимающих участие в Общем собрании акционеров, начинается с ___ч.____мин. и продолжиться до ___ч.____мин.

Доводим до Вашего сведения следующую повестку дня годового (внеочередного) Общего собрания акционеров:

1.
2.
3.

В период проведения Общего собрания акционеров Вы сможете ознакомиться со следующими материалами Общего собрания акционеров:

1.
2.
3.

Для участия в Общем собрании акционеров акционерам необходимо будет иметь при себе паспорт, а представителям акционеров – доверенность, оформленную в соответствии с требованиями законодательства РУз. (для физических лиц – нотариально заверенную, для юридических лиц – выданную данным юридическим лицом).

"InFinBank" AJ Kuzatuv kengashi /Совет Банка АО «InFinBank»

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi
to'g'risida Nizomga
4-ilova/
ПРИЛОЖЕНИЕ № 4
к Положению об
Общем собрании акционеров

АО «_____» AJ

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga masala kiritish to'g'risida
aksiyador _____ning taklifi
ПРЕДЛОЖЕНИЕ
акционера _____ о внесении вопроса в повестку дня Общего собрания акционеров

Tegishli aksiyalar soni /Количество принадлежащих акций:
_____dona oddiy/штук простых
_____ dona imtiyozli /штук привилегированных.

Aksiyadorlar yig'ilishining kun tartibiga kiritilishi lozim bo'lgan masala ta'rifi (uni qo'yish asoslarini ko'rsatgan holda)/Формулировка вопроса, подлежащего внесению в повестку дня собрания акционеров (с указанием мотивов его постановки):

_____
_____
_____

Bank Kuzatuv kengashi a'zoligiga nomzodlar (F.I.Sh., ish joyi, lavozimi, nomzodga tegishli AJ aksiyalari soni, turlarini ajratib ko'rsatgan holda)/Выдвигаемые кандидаты в члены Совета Банка (Ф.И.О., место работы, должность, количество акций АО с разбивкой по типам, принадлежащих кандидату):

_____
_____
_____

Bank boshqaruvi a'zoligiga nomzodlar (F.I.Sh., ish joyi, lavozimi, nomzodga tegishli AJ aksiyalari soni, turlarini ajratib ko'rsatgan holda)/Выдвигаемые кандидаты в Правление Банка (Ф.И.О., место работы, должность, количество акций АО с разбивкой по типам, принадлежащих кандидату):

_____
_____
_____

F.I.Sh./Ф.И.О. _____ _____
(imzo, sana /подпись, дата)

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi
to'g'risida Nizomga
5-ilova/

ПРИЛОЖЕНИЕ № 5
к Положению об
Общем собрании акционеров

АО «_____» АЖ

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish haqida
Talab

ТРЕБОВАНИЕ
о созыве внеочередного Общего собрания акционеров

Yig'ilishning chaqirilishini talab qilayotgan shaxsning F.I.Sh. (nomi)/Ф.И.О. (Наименование) лица, требующего созыва собрания:

_____

Tegishli aksiyalar soni/Количество принадлежащих акций (aksiyador talab qilayotgan bo'lsa to'ldiriladi /заполняется в случае выдвижения требования акционером):

_____ dona oddiy /штук простых
_____ dona imtiyozli /штук привилегированных.

Talab mazmuni (Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish sababi ta'rifi)/ Содержание требования (формулировка причины созыва внеочередного Общего собрания акционеров):

_____
_____
_____

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilishi lozim bo'lgan masala ta'rifi (uni kiritish asoslari ko'rsatilgan holda)/Формулировка вопроса, подлежащего внесению в повестку дня общего собрания акционеров (с указанием мотивов его внесения):

_____
_____
_____

Bank Kuzatuv kengashi a'zoligiga nomzodlar (F.I.Sh., ish joyi, lavozimi, nomzodga tegishli AJ aksiyalari soni, turlarini ajratib ko'rsatgan holda)/ Выдвигаемые кандидаты в члены Совета Банка (Ф.И.О., место работы, должность, количество акций АО с разбивкой по типам, принадлежащих кандидату):

_____
_____
_____

F.I.Sh./Ф.И.О. _____ _____
(imzo, sana /подпись, дата)

KELISHILGAN/СОГЛАСОВАНО:

Z.S. Abdullayev/
Абдуллаев З.С.
F.I.Sh./ Ф.И.О. Imzo /подпись «___» _____2026 y./г.

Sh.B. Mirzaraximov/
Мирзарахимов Ш.Б.
F.I.Sh./Ф.И.О. Imzo /подпись «___» _____ 2026 y./г.

F.S. Isxakova /
Исхакова Ф.С.
F.I.Sh./Ф.И.О. Imzo /подпись «___» _____2026 y./г.

O.O. Bakirov /
Бакиров О.О.
F.I.Sh./Ф.И.О. Imzo /подпись «___» _____2026 y./г.

M.A. Sabirdjanova/
Сабирджанова М.А.
F.I.Sh./ Ф.И.О. Imzo /подпись «___» _____ 2026 y./г.

A.U. Rejamatov/
Режаматов А.У.
F.I.Sh./ Ф.И.О. Imzo /подпись «___» _____ 2026 y./г.

ISHLAB CHIQILGAN/РАЗРАБОТАНО:

Korporativ maslahatchi/Корпоративный консультант
Lavozim/Должность

L.U. Raxmatullayeva/
Рахматуллаева Л.У.
F.I.Sh./Ф.И.О.

Imzo/Подпись

Sana/Дата

Hujjatning amal qilish muddati /Срок действия документа:

С 30.06.2026-yildan/г. по 29.06.2027 yilgacha/г.

Muddati uzaytirilgan /Продлен до «_____ »_____ 202____-yil./г.

Nusxa/Копия № ____
Tarqatish sanasi/Дата рассылки
15.07.2026-yil./г.

(hujjatni yuborishda hujjatlarni boshqarish uchun mas'ul shaxsning asl imzosi /оригинальная подпись ответственного за управление документом при рассылке документа)

«Invest Finance Bank»
aksiyadorlik jamiyati

ISO 9001:2015

YURIDIK XULOSA №3-289

Yuridik departamenti "Invest Finance Bank" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi to'g'risida nizom" loyihasi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi.

Mazkur loyiha:

- O'zbekiston Respublikasining 05.11.2019-yildagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 06.05.2014-yildagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-370-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 03.06.2015-yildagi "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi O'RQ-387-sonli Qonuni;
- "Qimmatli qog'ozlar bozorida axborotni taqdim qilish va e'lon qilish qoidalari" (Adliya vazirligi tomonidan 2012-yil 31-iyulda ro'yxatga olingan; ro'yxat raqami: 2383);
- "Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risida"gi Nizom (Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro'yxatga olingan; ro'yxat raqami; 3254);
- "InFinBank" AJning ichki qoidalari va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Shuningdek, ushbu loyiha "Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom (Adliya vazirligi tomonidan 05.04.2000-yilda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami: 916) talablariga javob beradi.

Yuridik departament direktori **H.G'. Murodov**

Metodologiya bo'limi boshlig'i H.B. Abdisattorov

2026-yil 10-mart